



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 12-dekabr

176-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28,73-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,21-moddalariga asosan tumanning dolzarb masalalari borasidagi tadbirlarni amalga oshirilishini ta‘minlashni tashkil etish maqsadida:

1. Tumanning dolzarb masalalari borasidagi tadbirlarni amalga oshirilishini ta‘minlashni tashkil etish maqsadida tumanning “Yangi yil Archasi” tadbirini ko‘tarinki kayfiyatda tashkil etish xarajatlari uchun 20,0 mln.so‘m obodonlashtirish boshqarmasiga hamda kam ta‘minlangan oilalar farzandlarini yangi yil sovg‘alari bilan ta‘minlash xarajatlari uchun 50,0 mln.so‘m va “Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuni” munosabati bilan sohaning ilg‘or xodimlarini rag‘batlantirish xarajatlari uchun 49,0 mln.so‘m tuman hokimligiga, jami 119,0 (bir yuz o‘n to‘qqiz) mln.so‘m miqdorida mablag‘ mahalliy budgetning 2025 yilgi zaxira jamg‘armasi hisobidan ajratilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag‘ bo‘yicha tuzilgan tuman hokimligining va obodonlashtirish boshqarmasining xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (A.Nishonov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

3. Tuman hokimligi bosh hisobchisi (SH.Jamolova)ga hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (T.Isaqov)ga ajratilgan mablag‘ni maqsadli va samarali foydalanilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmasiga yuklatilsin.

Farg‘ona tuman hokimi



Inomov X.T